

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

3. Studying-in-Germany.org <https://www.studying-in-germany.org>
(Germaniyada o‘qish bo‘yicha qo‘llanmalar, universitetlar, vizalar va ish imkoniyatlari)
4. TU Freiberg universitetining O‘zbekistondagi vakolatxonasi haqidagi xabar <https://tu-freiberg.de>
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi <https://edu.uz>
(Xorijiy hamkorliklar va ta’lim siyosati haqida rasmiy axborot)
6. UzDaily – Germaniya bilan kasbiy ta’lim sohasidagi hamkorlik haqida <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-and-germany-to-jointly-train-mid-level-specialists-under-the-ausbildung-system>

ZAMONAVIY YOSHLAR ONGIDA MA’NAVIYAT: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA AN’ANAVIY QADRIYATLAR O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

Xakimova Marjona Komiljonovna

Samarqand davlat chet tillari instituti

Roman-german tillari fakulteti Nemis tili yo‘nalishi

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda yoshlar turmush tarzida raqamli texnologiyalar ajralmas qismga aylangan. Ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, hatto ma’naviy ehtiyojlari ham TikTok, YouTube, Telegram kabi platformalar orqali shakllanmoqda. Ushbu maqolada ana shu global jarayon fonida an’anaviy ma’naviyat bilan zamonaviy raqamli madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni izlash masalasi yoritiladi.

Ushbu maqolada yoshlarning kitobga, ilmga va ruhiy yetuklikka ehtiyoji raqamli vositalar orqali qanday qondirilayotgani, ularning bu jarayonda ma’naviy qadriyatlarni yo‘qotmaslik uchun nimalarga ehtiyoji borligi haqida fikr yuritadi. Behbudiy singari ma’rifatparvar ajdodlarimiz yurt yoshlarining tafakkurini o‘stirishga xizmat qilgan bo‘lsa, bugun biz ushbu vazifani raqamli axborot muhitida qanday amalga oshirishimiz mumkin — degan savolga javob qidiriladi.

Maqola yakunida yoshlar ongida g‘oyaviy mustahkamlik, tanqidiy fikrlash va ma’naviy immunitet shakllantirishda an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar ma’naviyati, raqamli texnologiyalar, axborot makoni, an’anaviy qadriyatlar, ma’naviy immunitet, tanqidiy fikrlash, axborot xurujlari, ma’rifatparvarlik, internet madaniyati, zamonaviy yosh avlodi.

АННОТАЦИЯ: В современном мире цифровые технологии стали неотъемлемой частью жизни молодежи. Их мировоззрение, система ценностей и даже духовные потребности формируются посредством таких платформ, как TikTok, YouTube,

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Telegram. В данной статье рассматривается проблема поиска баланса между традиционными духовными ценностями и современной цифровой культурой на фоне глобальных изменений.

В статье анализируется, каким образом молодежь удовлетворяет потребности в знаниях, духовном развитии и интеллектуальном росте с помощью цифровых средств, а также какие условия необходимы, чтобы в этом процессе не были утрачены нравственные ориентиры. На основе идей таких просветителей, как Махмудходжа Бехбудий, автор поднимает вопрос: как сегодня, в условиях информационной среды, продолжить их миссию по духовному и интеллектуальному воспитанию молодежи?

В заключение статьи предлагаются пути гармоничного сочетания традиционных ценностей и современных технологий в целях формирования у молодежи идеологической устойчивости, критического мышления и духовного иммунитета.

Ключевые слова: *духовность молодежи, цифровые технологии, информационное пространство, традиционные ценности, духовный иммунитет, критическое мышление, информационные атаки, просветительство, интернет-культура, современная молодежь.*

ANNOTATION: *In today's world, digital technologies have become an integral part of young people's lives. Their worldview, value system, and even spiritual needs are increasingly shaped through platforms such as TikTok, YouTube, and Telegram. This article explores the issue of finding a balance between traditional spiritual values and modern digital culture in the context of global transformations.*

The article analyzes how youth satisfy their needs for knowledge, spiritual development, and intellectual growth through digital means, and what conditions are necessary to ensure that moral guidelines are not lost in the process. Drawing on the ideas of enlighteners like Mahmudkhoja Behbudi, the author poses the question: how can we continue their mission of spiritual and intellectual education of youth in today's digital information environment?

In conclusion, the article offers approaches to harmoniously integrating traditional values with modern technologies in order to foster ideological resilience, critical thinking, and spiritual immunity among young people.

Keywords: *youth spirituality, digital technologies, information space, traditional values, spiritual immunity, critical thinking, information attacks, enlightenment, internet culture, modern youth.*

Bugun yosh bo‘lish — faqat orzu qilish emas, balki axborot bosimi ostida yashashni anglatadi. Endilikda bir avlodning tarbiyasi oilada, maktabda emas, balki telefon ekranida — TikTok lentasida, YouTube videolarida va sun‘iy algoritmlar tomonidan shakllanmoqda. Bu — inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Shunday bir sharoitda “ma’naviyat”, “milliy qadriyatlar”, “o’zlikni anglash” kabi tushunchalar yoshlar ongida qanday o’rin egallamoqda? Axborot oqimlari orasida kitobga ehtiyoj yo’qolmayaptimi? Yoki, aksincha, biz an’anaviy ma’naviyatni zamonaviy vositalar orqali yangi shaklda yetkazishni o’rganishimiz kerakmi?

Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan hayotimizga kirib kelayotgan bir davrda yoshlarning ma’naviy ehtiyojlari qanday shakllanayotgani, ular raqamli olamda ruhiy ozuqani qanday izlayotgani va shu fonida Behbudiy kabi ma’rifatparvar ajdodlarimizning qarashlari qanday dolzarblik kasb etishi haqida fikr yuritiladi.

Maqola yoshlar ongida ma’naviy immunitet, g’oyaviy mustahkamlik, tanqidiy tafakkur shakllantirish yo’llarini zamon ruhi bilan uyg’un holda tahlil qiladi.

Raqamli avlodning ma’naviy manzarasi

Bugungi yoshlar — "Z avlod" yoki "raqamli avlod" deb nomlanayotgan ijtimoiy guruh. Ularning hayoti sun’iy intellekt, algoritmlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etilmaydi. Ular uchun qog’ozli kitob — tarix, kundalik suhbat — “voice message”, dars — “online webinar” shaklida bo’lishi tabiiy.

Ammo aynan shu raqamli muhitda shakllanayotgan dunyoqarash, ruhiy holat va ma’naviy tayanchlar — bizni chuqur o’ylantiradi. Yoshlar ko’p o’qimoqda, ha, lekin nima o’qiyapti? Ular ko’p tomosha qilmoqda, ammo qanday kontent ustidan? TikTok va YouTube’ning millionlab ko’rilgan videolari nafaqat kulgu, balki ongga singadigan qadriyatlar — ijobiy yoki salbiy — bo’lishi mumkin.

Bu jarayonda yoshlar yo o’zlikni anglab, ma’naviy mustahkam shaxsga aylanadi, yoki ommaviy madaniyatning passiv iste’molchisi bo’lib qoladi. Tanlov ularning qo’lida, ammo yo’l ko’rsatish biz — kattalar, o’qituvchilar, ziyolilar va Behbudiy izdoshlari zimmasida.

Raqamli texnologiyalar: xavfmi yoki imkoniyat?

Ko’pchilik texnologiyalarni faqat tahdid sifatida ko’radi. Albatta, yolg’on axborotlar, yolg’on “idol”lar va shaxsiy fikrsizlik — bularning bari xavfli. Ammo texnologiyalarni o’zimiz ma’naviy maqsadlarga xizmat qildirsa olsak-chi?

Bugun yoshlar telefon orqali Qur’on tilovatini tinglaydi, onlayn hadis saboqlarini o’rganadi, Telegram orqali ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadi, Google orqali kitob yuklab oladi. Bularning barchasi raqamli dunyoning yaxshi tomonlari.

Demak, asosiy vazifa — yoshlarni raqamli vositalardan ongli, tanqidiy fikr bilan foydalanishga o’rgatish. Raqamli savodxonlik — bu zamonaviy ma’rifatdir. Behbudiy "yurti qutqaradigan kuch — ilm va tarbiya" degan bo’lsa, biz bugun "ilm + raqamli savodxonlik + ma’naviyat" formulasi asosida ish yuritishimiz kerak.

An’anaviy qadriyatlar va zamonaviy vositalar: ziddiyat emas, uyg’unlik

Muvozanat bu – kitobxonlikni unutmagan holda smartfondan foydalanish, oilaviy rishtalarni TikTokda emas, suhbatda mustahkamlash, ibodatni onlayn kurslar bilan emas, qalb bilan bajarishdir. Yoshlar raqamli olamda yashashadi, ammo ular qalban bo’sh qolmasligi kerak.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Shuning uchun ham o‘quv dasturlarida, ommaviy axborot vositalarida, bloggerlar faoliyatida ma’naviy mazmun, milliy o‘zlik va tanqidiy fikrlash ustuvor bo‘lishi shart.

Behbudiy merosi: zamonga uyg‘un saboqlar

Behbudiy bugun yashaganida, ehtimol Telegramda kanal yuritgan, TikTok‘da “1 daqiqada ibratli fikr” videolarini joylagan, YouTube‘da “Savodsizlikdan najot” nomli vlog ochgan bo‘lardi. Chunki u zamonasiga befarq bo‘lmagan, u doimo yangilik istagan.

Uning eng buyuk sabog‘i — inson qalbini uyg‘otish. Bugun biz ham yoshlar qalbiga yo‘l topishimiz kerak — ularning tilida, ularning uslubida, lekin o‘zimizning qadriyatlarimiz bilan.

Demak, biz raqamli olamda yosh ongini mustahkamlovchi, g‘oyaviy va ma’naviy asosga ega yangi avlod kontentini yaratishimiz kerak. Behbudiy orzusi shuki — yoshlar tafakkurli, o‘zligini anglagan, ma’rifatli bo‘lishi. Bu orzuni bugun biz, uning izdoshlari, amalga oshirishimiz kerak.

Yoshlar ongida g‘oyaviy mustahkamlik, tanqidiy fikrlash va ma’naviy immunitetni shakllantirish uchun an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish zarur. Buning uchun quyidagi yo‘llar taklif etiladi:

1. Raqamli platformalarda ma’naviy kontentni ko‘paytirish – ijtimoiy tarmoqlar, YouTube va TikTokda yoshlar uchun milliy qadriyatlarni yorituvchi qisqa, samarali va estetik jihatdan jozibador videolar tayyorlash.

2. O‘quv dasturlariga "raqamli ma’naviyat" modullarini kiritish – texnologiyalardan ongli foydalanish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, g‘oyaviy mustahkamlik kabi mavzularni dars shaklida berish.

3. Kitobxonlikni raqamli shaklda rag‘batlantirish – elektron kutubxonalar, audio kitoblar, mobil ilovalar orqali yoshlarni kitobga yaqinlashtirish.

4. Ma’naviyatli bloggerlar va kontent yaratuvchilarini qo‘llab-quvvatlash – ijobiy, ilmiy, vatanparvarlik va axloqiy mazmundagi blog va sahifalarni targ‘ib qilish.

5. Milliy qadriyatlarni raqamli vositalar orqali qayta talqin qilish – maqollar, rivoyatlar, tarixiy siymolar hayoti, Behbudiy g‘oyalari kabi boy merosni multimedia ko‘rinishida yosh avlodga yetkazish.

Bu takliflar yoshlarning zamonaviy dunyo bilan bo‘g‘lanishini uzmasdan, ularni ma’naviy jihatdan boyitishga, milliy ong va tanqidiy tafakkur asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlar — jamiyatning kelajagi emas, buguni. Ularning ongida qanday g‘oya shakllansa, ertaga o‘sha g‘oya jamiyatni boshqaradi. Shuning uchun ham yoshlar ma’naviyatini faqat o‘tmish yodgori sifatida emas, balki bugungi raqamli muhitda shakllanuvchi tirik jarayon sifatida anglashimiz lozim.

Bugungi texnologiyalar — tahdid emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ma’naviy o‘sishning qudratli vositasiga aylanishi mumkin. Yoshlar TikTokdan nafaqat ko‘ngilxushlik, balki ibrat; YouTube‘dan faqat kulgu emas, balki saboq olib chiqadigan bo‘lsa, bu jamiyatda Behbudiy orzu qilgan tafakkurli avlod shakllanayotganidan darakdir.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Behbudiy ilm va ma’rifatni milliy yuksalishning asosi deb bilgan. Bugun biz uning izdoshlari sifatida bu g’oyani yangi sharoitda — raqamli muhitda davom ettirishimiz kerak.

Demak, vazifa aniq: yoshlar ongini ma’naviy mazmun bilan to’ldirish, raqamli texnologiyalarni esa vosita sifatida to’g’ri yo’naltirish. Ana shunda milliy qadriyatlar zamonaviy shaklda yashaydi, va biz g’oyaviy mustahkam, tanqidiy tafakkurga ega, ma’naviy immuniteti kuchli avlodni voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2014.
2. Jo’rayev N. Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Mirziyoev Sh.M. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. Qurbonov A. Raqamli madaniyat va yoshlar // Ijtimoiy fikr jurnali, 2021, №4.
5. Karimova Z. Axborot asrida yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi omillar // Ma’naviyat jurnali, 2022, №2.
6. Usmonxo’jayev B. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Technology in education – A tool on whose terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023. <https://unesdoc.unesco.org>
8. Pew Research Center. Teens, Social Media and Technology 2022. – www.pewresearch.org
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi. Yoshlar siyosati va g’oyaviy immunitet masalalari. – Toshkent, 2022.
10. Ziyovuddinov H. Tanqidiy fikrlash: yoshlarga zaruratmi, majburiyatmi? // O‘zbekiston ovozi, 2023-yil, 15-aprel soni.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR.

Mirzaaliyeva Gulira’no Mirzaanvar qizi.

Namangan davlat insitituti.

Annotatsiya: *Ushbu maqola kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish yo’llari hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlar tahlil etilgan. Mustaqil ta’lim faoliyatining o’quv jarayonidagi o’rni, talabaning bilimga bo’lgan ma’sulyatini kuchaytirishdagi ro’li yoritilgan. Xususan, Cambridge ta’lim tizimi tajribasi asosida mustaqil ishlarning raqamli platformalarda yuritilishi, baholash mezonlari ushlab o’rganilgan. Maqola modul tizimining amaldagi kamchiliklarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo’yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*